



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
NAMANGAN VILOYATI FILIALI**

Manzil: 160101, Namangan shahar, Xiva ko'chasi, 1- uy, Tel: 69-233-19-33

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/07-783

HUJJAT TURI Chiqindilarning paydo bo'lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: JIYDAKAPA INDUSTRY MCHJga berildi.

STIR: 302805428

Obyekt nomi: Namangan viloyati, Uychi tumani, Axxi MFY hududida joylashgan "Temir-beton va asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi" uchun ishlab chiqilgan "Chiqindilar paydo bo'lishi va joylashtirilishini ekologik normativ loyihasi" (CHCHM(PDO)).

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: "HUSNIDDIN E'KO-LOYIHA -SERVIS"

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

STIR: 301525484

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: RAXIMOV ERKIN ASROLJANOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning II toifa toifasining 18-bandiga mansub.**

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 13.08.2024

Amal qilish muddati: 13.08.2029

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



A.Xaydarov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

- chiqindilarning xavfsiz shart-sharoitda to'planishi, saqlash maydonida ekologik normadan oshiq joylashtirilmasligi, o'z vaqtida utilizatsiya qilinishini doimiy nazoratda tutish;
- shu bilan birga buyurtmachi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 apreldagi 202-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilishning iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish to'g'risida" qaroriga binoan obyekt hududida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun to'liq kompensatsiya to'lovlarini belgilangan tartibda to'lashi shartligi ta'kidlanadi;
- zaharli (toksik) va zaharli bo'lmagan chiqindilar hisobini yuritish va belgilagan tartibda davlat statistika hisobotlarini taqdim etish;
- chiqindilarni xavflilik darajasi va turiga qarab ajratgan holda to'plash va vaqtincha saqlashga mo'ljallangan maxsus punkt (MSP) tashkil etish hamda qattiq qoplamali maydonchalarda zarur miqdordagi qopqoqli konteynerlar o'rnatish;
- chiqindilar bilan ishlash faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi 787-sonli "Maishiy chiqindilar bilan bog'lik ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qoidolari"ga amal qilgan holda tashkillashtirish;
- sanitar tozalash bo'yicha ixtisoslashtirilgan korxona bilan tuzilgan shartnomaga binoan maishiy chiqindilarning o'z vaqtida olib ketilishini ta'minlash;
- chiqindilar miqdorini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda tatbiq etish;
- sanoat va yordamchi uskunalari, apparatura, kommunikatsiya va ventilyatsiya moslamalarini soz holda tutish, muntazam ravishda texnik xizmat ko'rigidan o'tkazish ishlarini doimiy ravishda amalga oshirishi lozim;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 may kungi "Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni bajarilishi yuzasidan yuqori samaradorlikka ega chang-gaz tozalash uskunalari va lokal tozalash inshootlari o'rnatilsin;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 31 maydagi PF-81-son Farmoni 1-ilovasiga asosan atrof muhitga ta'sir bo'yicha I va II toifalarga kiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda sanitar ximoya zonalarini avtomat statsionar kuzatuv postlari bilan jixozlansin;
- Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umum milliy loyihadini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023 yildagi PF-199-son Farmoni 15-bandiga

asosan, ushbu obyekt o'z va tutash hududlarida "Yashil belbog'"lar barpo etish va ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini amalga oshirsin hamda o'zlariga tutash hududlardagi yerlarning kamida 25 foizini ko'kalamzorlashtirish maydonlariga ajratsin va ularda ko'kalamzorlashtirish tadbirlari amalga oshirilsin;

- obyektning faoliyatida avariya holatlarini oldini olish uchun tegishli xavfsizlik qoidalari, talablari va me'yorlariga amal qilinishi taminlansin;

- obyektga olib borish yo'llarini transport harakati natijasida hosil bo'luvchi changlarni keskin kamaytirish uchun yo'l yuzasiga yutuvchi bog'lovchi modda bilan qoplanadigan chaqiq tosh qoplamasi yotqizilsin;

- atrof-muhitni ifloslantirganlik uchun kompensatsiya to'lovlarining hisob-kitoblari to'lovini qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshirilishini nazorat qilish Namangan shahar Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi inspeksiyasi zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 21.01.2014 yildagi 14-sonli "Ekologik normativlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishish tartibi to'g'risidagi Nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 33-bandi talablariga muvofiq, chiqindilarning hosil bo'lishini normalash asosiy va yordamchi ishlab chiqarishning texnologik xususiyatlariga muvofiq amalga oshiriladi (kommunal tusdagi chiqindilarning hosil bo'lishi va joylashtirilishi normalanmaydi) hamda 53-bandi talablariga muvofiq, davlat ekologik ekspertiza markazining ushbu xulosasi ishlab chiqilgan kundan boshlab **5 yil davomida yuridik kuchga ega.**

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilmaganligi uchun korxona rahbari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'lishini eslatib o'tamiz.

NAZORAT UChUN

Ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasida ko'zda tutilmagan faoliyat turlari bilan shug'ullanish, yangi qurilish, qayta tiklash, kengaytirish ishlarini amalga oshirilishi va boshqa faoliyat turidan foydalanish ko'zlangan taqdirda "Atrof muhitga ta'siri to'g'risidagi bayonot" (AMTTB) loyihasi ishlab chiqilib, belgilangan tartibda Davlat ekologik ekspertizasi markazi Namangan viloyati filialiga taqdim qilinishi hamda tegishli xulosa olinishi shart.

Namangan viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi sohasidagi nazorat inspeksiyasi hamda Uychi tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi inspeksiyasiga, "JIYDAKAPA INDUSTRY" MChJ tomonidan belgilangan me'yorlarga rioya etilishini va tabiatdan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi ustidan muntazam nazorat olib borish yuklatiladi.



Ma'sul ekspert: RAXIMOV ERKIN ASROLJANOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

Davlat ekologik ekspertiza markazi Namangan viloyati filialiga, Namangan viloyati, Uychi tumani, Axxi MFY hududida joylashgan "Temir-beton va asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi" uchun ishlab chiqilgan "Chiqindilar paydo bo'lishi va joylashtirilishini ekologik normativ loyihasi" (CHCHM(PDO)) taqdim etildi.

Taqdim etilgan materiallarni ko'rib chiqib, Davlat ekologik ekspertiza markazi Namangan viloyati filiali quyidagilarni ta'kidlaydi: "Chiqindilarning hosil bo'lishi va joylashtirilishining ekologik normativlari" loyihasi, Namangan viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi bilan kelishilgan xatlov asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur korxona faoliyat ko'rsatib kelayotgan bo'lib, so'ngi bosqichlarda "JIYDAKAPA INDUSTRY" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ushbu temir-beton va asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyati uchun 2019 yil 8 apreldagi "Chiqindilarini paydo bo'lishi va joylashtirilishini ekologik normativ" loyihasi uchun berilgan 17-09/270-sonli Davlat ekologik ekspertiza markazining xulosasi asosida faoliyat yuritayotgan.

"JIYDAKAPA INDUSTRY" mas'uliyati cheklangan jamiyatiga qarashli temir-beton va asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish korxonasi, Namangan viloyati, Uychi tumani, Axxi MFY hududida - 231300 m² yer maydonida joylashgan bo'lib, uning hududi shimol tomondan – avtomobil yo'li bilan, sharq tomondan – "Alfa-Farhod" MChJ va "Axxi tosh maydalash" MChJ korxonalari hududi bilan, janub tomondan – avtomobil yo'li va "ANAS TRANS SERVIS" MChJ hududi bilan hamda g'arb tomondan – "TBMZ" MChJ hududi bilan chegaralangan.

Eng yaqin aholi xonadonlari obyektning shimoliy tomoni chegarasidan 160 metr masofada joylashgan.

Obyektida ko'p bo'shliqli tom yopma plitalar, poydevor bloklari, kolodets elementlari, zinapoya elementlari, irrigatsiya lotoklari, qovurg'ali tom yopma plitalar, tovar beton, asfaltbeton kabi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi.

Obyekt joylashgan hududning fizik-geografik va iqlim holati xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar loyihada to'liq keltirilgan.

Obyekt yer maydonining "Google Earth Pro" dasturi orqali olingan geoografik joylashuvi koordinatalari quyidagicha:

40°58'43.69" ShK 71°51'56.00" ShU, 40°58'48.46" ShK 71°52'6.51" ShU,
40°58'49.79" ShK 71°52'5.49" ShU, 40°58'54.09" ShK 71°52'16.92" ShU,
40°58'52.17" ShK 71°52'18.49" ShU, 40°58'53.72" ShK 71°52'22.13" ShU,
40°58'51.15" ShK 71°52'24.05" ShU, 40°58'48.73" ShK 71°52'18.78" ShU,
40°58'45.83" ShK 71°52'21.14" ShU, 40°58'46.42" ShK 71°52'22.34" ShU,
40°58'41.60" ShK 71°52'26.20" ShU, 40°58'39.35" ShK 71°52'21.27" ShU,
40°58'36.84" ShK 71°52'23.12" ShU, 40°58'33.86" ShK 71°52'16.12" ShU,
40°58'38.11" ShK 71°52'13.35" ShU, 40°58'35.03" ShK 71°52'6.18" ShU,
40°58'38.21" ShK 71°52'4.18" ShU, 40°58'41.26" ShK 71°52'10.67" ShU,
40°58'43.84" ShK 71°52'8.66" ShU, 40°58'38.09" ShK 71°51'56.22" ShU.

“JIYDAKAPA INDUSTRY” mas’uliyati cheklangan jamiyat hududining balansi:

Bino-inshootlar egallaydigan maydon - 27057 m²;

Ko’kalamzorlashtirilgan maydon - 20500 m²;

Sifati oshirilgan qoplamali yo’l va yo’laklar maydoni - 2600 m²;

Xom-ashyo, quritish va mahsulot saqlash maydonlari - 181143 m²;

Umumiy maydon - 231300 m².

Obyekt hududidagi ishlab chiqarish sexlari va uchastkalar tasnifi: Mamuriy bino, ishchilar uchun yordamchi bino, omborxona, laboratoriya, mexanik ustaxona, tosh maydalash-saralash sexi, beton va temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish sexi, asfaltbeton ishlab chiqarish uchastkasi, oshxona, issiqxona, qozonxona, AYoQSh.

Loyihaga ko’ra obyekt hududida yiliga 300 ming tonna asfaltbeton qorishmasi, 30 ming kub.m temir-beton mahsulotlari, 150 ming kub.m tovar beton qorishmasi ishlab chiqariladi. Buning uchun 67500 tonna sement, 350 ming kub.m shag’al, 17400 tonna bitum, 5000 tonna mineral qo’shimcha kabi asosiy ishlab chiqarishda xom-ashyo mahsulotlari olib kelinadi. 350 ming kub.m shag’al obyekt hududida maydalash-saralash liniyasida korxona extiyoji uchun beton va asfaltbeton ishlab chiqarish uchun qum va chaqiqtoş ishlab chiqarish uchun ishlatiladi. Buning natijasida 150 ming kub.m qum va 350 ming kub.m chaqiqtoş ishlab chiqariladi. Korxonada yordamchi (ko’makchi) ishlab chiqarishlar uchun 50000 litr ishlatilgan moy, 2500 litr benzin yoqilg’isi, 350000 litr dizel yoqilg’isi, 10000 litr motor moyi (aftol), 500 litr anifriz, 1000 litr propan-butan gazi, 7000 kub.m kislorod, 20 tonna ANO elektrod, 600 tonna armatura mahsulotlari kabi xom-ashyo mahsulotlari olib kelinadi.

Tosh maydalash saralash uchastkasida 1 dona maydalab-sortirovka qiluvchi tizimi o’rnatilgan. Tizim liniyasi tarkibiga 1 dona pitatel, 2 dona konusnaya drobilka, 1 dona inersion groxot va klassifikator, lentali konveyerlar va boshqaruv kabinasi kabilardan iborat. Maydalangan chaqiqtoş va qum transporter lenta yordamida groxotda saralanadi. Groxotdan o’tkazishda qum suv yordamida yuviladi. Maydalash uchastkasi faoliyati natijasida atmosferaga noorganik chang tashlanadi. Maydalash uchastkasida konusnaya drobilka SN-15 rusumli tozalash samaradorligi 98% bo’lgan chang-gaz tozalash qurilmasi o’rnatiladi. Qumni yuvish uchun suvni aylanma tarmoq tashkil qilish rejalashtirilgan. Buning uchun obyekt hududida tindirgichlar tashkil qilinib, suv tindirilib yana ishlab chiqariga qaytariladi.

Beton va temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish sexida 4 dona SMJ151 rusumli beton yotqizish uskunasi, 8 dona IV-98 rusumli va 4 dona SMJ - 142 rusumli vibratorlar, 1 dona EUV rusumli suv tortish nasosi, 1 dona PLD 2400 rusumli qorish uskunasi, 2 dona MT-0.75 tochkali payvandlash uskunasi, 1 dona ko’p tochkali payvandlash uskunasi, 2 dona SMJ 148B rusumli armaturani to’g’irlash uskunasi, 2 dona SMJ-356 rusumli armaturani kesish uskunasi, 2 dona SMJ-129B rusumli armaturani zo’riqtirish uskunasi, 4 dona SMJ-128A rusumli armaturani qizdirish uskunasi, 1 dona SMJ-128 rusumli armaturani galovka qilish uskunasi, 1 dona SMJ357 rusumli qoliplash uskunasi, 3 dona AVDS-425M, AVDS-1200M, AVDS-2400M rusumli sementni dozalagich uskunasi, 2 dona TK-11, TK-12 rusumli lentali konveyer uzatgich, 1 dona SMJ-151 rusumli relsda yuradigan arava, 2 dona SB-138A rusumli beton aralashtirgich, K-09 rusumli kozlovoy kran, 2 dona 10S-16.5-12-Uz rusumli mostovoy kran, 1 dona SMJ151 rusumli beton yotqizish uskunasi, 1 dona IV-98 rusumli va 1 dona SMJ - 142 rusumli vibratorlar mavjud.

Asfaltbeton ishlab chiqarish sexida 2 dona DS-117 va 1 dona Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan asfaltbeton aralashtirgich uskunalari o’rnatilgan. Asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish uchun 87600 tonna qum, 191700 tonna chaqiqtoş, 17400 tonna bitum, 5000 tonna mineral qo’shimcha sarflanadi. Bitum eritish qozoni GBG-0,2 rusumli gaz gorelka bilan

jihozlangan. Tabiiy gazning yillik sarfi 44,720 ming m³ ni tashkil etadi. Asfalt aralashtirgich uskunasi quritish barabani GSAU-50B rusumli garelka bilan jihozlangan. Tabiiy gazning yillik sarfi 104,0 ming m³ ni tashkil etadi. Ushbu jarayonlarda chiqadigan zararli moddalarni tutib qolish uchun uch bosqichli tozalov uskunalari bilan ta'minlanadi. Birinchi bosqichda zararli moddalar tozalash samaradorligi 38% bo'lgan o'qli siklon orqali, ikkinchi bosqichda tozalash samaradorligi 67% bo'lgan DP-10A SN-15U rusumli siklonlarga tushadi. So'ng siklonlar ishlash unumdorligi (KPD) 90 % bo'lgan SSN-40 (4 dona) rusumli siklon tozalash moslamasi yordamida tozalanadi. Bitumni saqlash uchun obyekt hududida temir-beton o'ra tashkil qilingan va hajmi 30 m³ lik 7 dona metall sisternalar tashkil qilingan.

Obyektida tayyorlangan temir-beton mahsulotlarni quritish uchun obyekt hududida 2 dona qozonxona tashkil etilgan. Qozonxonalarning har biriga 1 donadan par hosil qilish uchun WNS 1.5-1.25-Y(Q) markadagi bug' qozoni o'rnatilgan. Tabiiy gaz sarfining yillik miqdori 37,960 ming m³ ni tashkil qiladi.

Korxona balansida 7 dona kamaz, 2 dona kraz, 1 dona maz, 2 dona avtobus, 1 dona T-130 rusumli traktor, 1 dona pogruzchik, 1 dona buldozer, 1 dona teplovoz, 1 dona tirkama sementovoz, 3 dona ekskavator va 5 dona yengil transport vositalari mavjud.

Avtomobillarga yoqilg'i quyish shohobchasida yoqilg'i saqlash uchun 1 dona sig'imi 15 m³li (benzin yoqilg'isi uchun), 1 dona sig'imi 10 m³li (dizel yoqilg'isi uchun), va 1 dona sig'imi 25 m³ (dizel yoqilg'isi uchun) bo'lgan sig'imler mavjud. Kolonkalar navesida 1 dona benzin uchun va 1 dona dizel yoqilg'isini quyish uchun NARA rusumli kolonkalar o'rnatilgan.

Hududidagi binolarni isitish uchun 3 dona LG rusumli devorga o'rnatiladigan isitish qozonidan foydalaniladi. Qozonlarni yillik tabiiy gaz sarfi 23,868 ming m³ ni tashkil qiladi.

Obyekt hududida 150 ishchi (shundan 9 ta ITX, 141 ta ishchi) faoliyat olib boradi. Obyekt 1 yilda 260 kun, 1 kunda, 1 smena (8 soat) ishlaydi. Obyekt hududida oshxona mavjud bo'lib u yerda 1 kunda 1 mahal 1 xil taom tayyorlanadi. Oshxonada ovqat tayyorlash uchun 3 dona gaz garelkasi o'rnatilgan o'choq va 1 dona gaz garelkasi o'rnatilgan samovar mavjud. 4 ta gaz garelkalaridagi yillik gaz sarfi 3,952 ming m³ ni tashkil qiladi.

2024 yilda o'tkazilgan "Chiqindilarni hosil bo'lishi va ularni joylashtirish xatlovi" natijalariga ko'ra, korxonada 14 turdagi jami miqdori – 3513,39388 t/yil bo'lgan ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilari hosil bo'lishi aniqlangan.

Korxonaning faoliyatini ekologik tahliliy natijalariga ko'ra, quyidagi chiqindilar chiqishi aniqlangan:

- ekologik xavfliligi bo'yicha IV sinfga mansub rezina chiqindilari – 0,489 t/yil, hom-ashyoni siljitish jarayonida hosil bo'ladi. Rezina chiqindisini omborxonada vaqtincha to'planadi. Chiqindini korxonada vaqtinchalik saqlanadi va to'planishiga qarab rezina qayta ishlash korxonasiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha V sinfga mansub brak beton chiqindilari – 9 t/yil, temir-beton mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Brak beton chiqindisi yo'l qurilish tashkilotiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha III sinfga mansub aspiratsiya sistemasida to'plangan chang chiqindilari – 3438,2416 t/yil, chang-gaz qurilmasini ishlashi natijasida hosil bo'ladi. Beton ishlab chiqarish tizimida o'rnatilgan chang-gaz tozalash uskunasi to'plangan chang chiqindisi beton tayyorlashda qayta ishlatiladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha IV sinfga mansub brak asfalt chiqindisi – 30 t/yil, asfaltbeton mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida hosil bo'ladi. Brak asfaltbeton chiqindisi yo'l qurilish tashkilotiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha V sinfga mansub qora metall chiqindisi – 10 t/yil, asosiy ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi dastgohlarni ta'mirlash va korxona balansida bo'lgan transport vositasini ta'mirlash natijasida hosil bo'ladi. Mazkur chiqindilar po'lat sig'imda to'planib, korxonada maxsus ajratilgan joyda vaqtincha saqlanadi. Keyinchalik "Ikkilamchiqorametall" korxonasiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha IV sinfga mansub maxsus kiyim chiqindilari – 0,644 t/yil, ishchilarning eskirgan va yaroqsiz holga kelgan maxsus kiyimlari ko'rinishida hosil bo'ladi. Metall konteynerlarda to'planib, omborxonada maxsus ajratilgan joyda vaqtincha saqlanadi. Keyinchalik lattani qayta ishlash korxonalariga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha III sinfga mansub latta (vetosh) chiqindisi – 0,065 t/yil, korxona balansidagi avtomobillar va uskunalarni artish natijasida ishlatilgan latta chiqindisi kelib chiqadi. Latta(vetosh) chiqindisini omborxona ichidagi metall yashiqqa to'planadi va latta qayta ishlash korxonasiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha IV sinfga mansub svetodiod lampalar chiqindisi – 0,00318 t/yil, ishdan chiqqan lampalarni almashtirish natijasida hosil bo'ladi. Yaroqsiz svetodiodli lampalar chiqindisi omborxonada vaqtincha saqlanadi va to'planishiga qarab plastmassani qayta ishlash korxonasiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha II sinfga mansub ishlatilgan moy chiqindisi – 8,08 t/yil, transport vositalarini ishlashi natijasida hosil bo'ladi. Ishlatilgan moy chiqindisi omborda vaqtincha saqlanadi va qoliplash bo'limida qoliplarga surkaladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha II sinfga mansub neft shلامي chiqindisi – 0,2181 t/yil, Neft mahsulotlarini saqlashdagi sig'implardagi neft shلامي chiqindisini hosil bo'ladi. Neft shلامي chiqindisi omborda vaqtincha saqlanadi va asfaltbetonga qo'shimcha sifatida qo'shib yuboriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha III sinfga mansub avtoshina chiqindilari – 0,7 t/yil, transport vositalarini ishlashi natijasida hosil bo'ladi. Avtoshina chiqindisi omborda vaqtincha saqlanadi va to'planishiga qarab rezinani qayta ishlash korxonasiga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha V sinfga mansub qog'oz chiqindilari – 0,018 t/yil, korxonada xujjat ishlarini yuritish natijasida hosil bo'ladi. Qog'oz chiqindisi omborda vaqtincha saqlanib, makulaturaga topshiriladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha V sinfga mansub oziq-ovqat chiqindisi – 0,12 t/yil, oshxonada taom tayyorlash natijasida hosil bo'ladi. Chiqindilar oshxonadagi idish yuvish xonasida plastmassa idishlarga to'planadi va har ish kunida oshxona xodimlari tomonidan uy hayvonlariga ozuqa sifatida olib ketiladi;

- ekologik xavfliligi bo'yicha IV sinfga mansub qattiq maishiy tusdagi chiqindilar va suprindi axlatlar – 15,815 t/yil, korxona ishchilarining hayotiy faoliyati natijasida hamda korxona hududini tozalash jarayonida hosil bo'ladi. Maxsus standart metall konteynerlarda to'planib, korxona hududida ajratilgan maxsus joyda vaqtincha saqlanadi. Haftada 2 marta shartnoma asosida markaziy chiqindi poligoniga joylashtiriladi;

Loyihada korxonaning ish faoliyati davrida ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarining ishlab chiqarish hajmiga nisbatan hosil bo'lish me'yorlari va yillik miqdorlari aniqlangan. Korxonada hosil bo'ladigan chiqindilarni vaqtincha saqlaydigan maxsus joylar mavjudligi, ularni o'z vaqtida tegishli korxonalarga topshirish va chiqindixonaga joylashtirish jarayonlari yoritilgan.

Shuningdek, loyiha hujjatlarida barcha chiqindilarning hosil bo'lish manbalari yoritilib, ularning yillik miqdori me'yorlari hisob-kitobi keltirilgan. Har bir chiqindi uchun hosil bo'lish jarayoni, xossasi, xususiyatlari va tarkibi kabi ma'lumotlar aks ettirilgan pasport tuzilib, ularning xavflilik sinfi, vaqtinchalik joylashtirish limitlari va utilizatsiya qilish yo'llari belgilangan. Chiqindilarni to'plash, vaqtincha saqlash va transportirovka (tashish) qilish shartlari va qoidalariga amal qilinganda korxonada hosil bo'ladigan barcha chiqindilarning atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmasligi aniqlangan. Chiqindilar uchun me'yorlashtirilgan hududning maydoni 34 m²ni, me'yoriy chiqindilarni saqlash miqdori esa yiliga 884,09848 tonnani tashkil etadi.

Mazkur ekologik normativ loyihasi(ChChM(PDO))da Chiqindilarning paydo bo'lishi va joylashtirilishining ekologik normativlarini nazorat qilish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan.



Ma'sul ekspert: RAXIMOV ERKIN ASROLJANOVICH